



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 16-fevral, № 35 (8658)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



XALQCHIL SIYOSATNING ANDIJONDAGI YORQIN NATIJALARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlar iqtisodiyoti, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 15-fevral kuni Andijon viloyatiga tashrif buyurdi.



Tashrif dasturida ko'zda tutilgan manzillar va rejalar ko'p. Birinchisi, "Asaka tekstil" klasterining to'qimachilik korxonasi bo'ldi.

Bu ulkan majmua iqtisodiy kontrastning yorqin misoli. 2016-yilgacha bu yer tashlandi joy edi. Davlatimiz rahbari tadbirkorlarga bergan ruh va madad natijasida bu yerda bosqichma-bosqich yangi binolar qurilib, 2022-yil avgustda ishga tushirildi. Bugungi kunda 83 million dollarlik loyiha evaziga xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq "zanjir" tashkil etilgan.

Xususan, klaster tizimida Andijon viloyatining Ulug'nor va Jalaquduq tumanlari hamda Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida 11 ming 200 gektar maydonda paxta yetishtiriladi. Shundan 2 700 gektarda tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yilgan.

Asakadagi korxonaga Shveysariya, Italiya, Turkiya, Germaniya, Yaponiyadan uskunalar keltirib o'rnatilgan. U yiliga 11 ming tonna kalava ip, 8 ming tonna momiq va trikotaj mato, 12 ming tonna ip va matoni ko'yash, 6 ming tonna tayyor trikotaj va sochiq ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu yerda 3 ming 200 kishi ishlamoqda.

Korxonada xorijiy hamkorlar talabiga asosan sifat nazorati, kasb o'rgatish markazi tashkil etilgan. Bo'yoq sexidan chiqqan suvni tozalash inshooti ham ishga tushirilgan.

Umuman, klaster tomonidan 102 million dollarlik loyihalar

amalga oshirilib, yillik 50 million dollarlik eksport quvvati yaratilgan. Bundan yetti yil oldingi holat bilan solishtirganda daromad, iqtisodiy manfaatdorlikdagi farq yer bilan osmoncha.

Kelgusi yillarda klaster tomonidan Ulug'nor tumanida 70 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash zavodi, tikuv-trikotaj va paypoq ishlab chiqarish korxonasi tashkil qilinishi rejalashtirilgan. Ularda yana 1 ming 600 dan ziyod ish o'rinlari ochiladi.

Shu yerda Andijon viloyati misolida paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi bo'yicha axborot berildi. Qayd etilganidek, ishlab chiqarish tannarxi 15 foizga qisqartiriladi, 65 foiz qo'shilgan qiymat yaratiladi. Dizayner va texnologlar maktabi tashkil etiladi. Nufuzli brendlar va riteylerlar jalb etilib, tarmoq korxonalar eksporti 800 million dollarga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbari klaster bilan fermerlar o'rtasidagi munosabatlarda manfaatdorlikni oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

— Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlari rivojlantiraymiz. Maqsadimiz — yerga nisbatan e'tiborni, mahsulot yetishtiruvchilar manfaatini kuchaytirish. Sohaning quyi bo'g'ini bo'lgan dehqon va fermerlar ham raqobatbardosh bo'lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident korxonada ishlayotgan tikuvchi ayollar bilan suhbatlashdi. Ularning ayrimlari o'z tumanida yuqori maoshli ish paydo bo'lgani

uchun mehnat muhojirligidan qaytib kelgan.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Andijon tumanidagi "Andijon sanoat xabi" dagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

105 gektar maydonni egallagan ushbu sanoat hududida mashinasozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari kabi tarmoqlardagi 12 ta loyiha joylashgan. Ulardan biri — "Avto Spring Komponent" mas'uliyati cheklangan jamiyati. Umumiy qiymati qariyb 60 million AQSH dollari bo'lgan bu korxonaga yiliga 18 ming tonna po'lat detallar ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Ma'lumki, quyma detallar sanoatning asosi hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish yuksak malaka va texnologiyalar ta-lab etadi. Xususan, ilgari mamlakatimizning avtomobilsozlik va mashinasozlik tarmoqlarida bunday qismlar importi katta o'rin tutardi. Ularning mahalliyashtirilishi endi tannarxni kamaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi.

Korxonada Xitoy va Germaniya davlatlari texnologiyalari asosida po'lat qismlar tayyorlash loyihasi boshlangan. Metall quyuv qismi AQSH, mexanik ishlov berish qismi Xitoy kompaniyalari tomonidan loyihalashtirilgan. O'tgan yili 4 turdagi qishloq xo'jaligi texnikasi uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarilgan.

Bu loyihaning birinchi bos-qichi bo'lib, 140 ta ish o'rimi yaratilgan. Shu yilning may oyida avto-

mobillar uchun quyma qismlar tayyorlanadigan ikkinchi bosqich ishga tushirildi.

Bu noyob korxonaga bir vaqtning o'zida 12 tonna metall eritish imkoniyatiga ega. Yana bir samarali tomoni, xomashyolar Asaka tumanidagi avtomobil zavodining temir chiqindilaridan olinib, qayta ishlanadi.

Majmua to'liq quvvatga chiqqanda, yiliga 27 mil-lion dollarlik mahsulotlar mahalliyashtiriladi. Prezidentimizga mahalliyashtiriladigan mahsulotlar haqida axborot berildi. Bunda tannarxni kamaytirish va "yashil" texnologiyalarni qo'llashga katta e'tibor qaratiladi.

Joriy yilda umumiy qiymati 156 million dollarlik 10 ta loyiha ishga tushirilib, 2 ming kishining bandligi ta'minlanadi. 2025-yilda umumiy qiymati 14 million dollarlik 2 ta loyihani amalga oshirib, yana 400 ta ish o'rimi yaratish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari "Andijon sanoat xabi" da viloyatda ishlab chiqarilayotgan mebellar ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Andijon viloyatida 377 ta mebelsozlik korxonasi faoliyat yuritmoqda. So'nggi 5 yil davomida mazkur yo'nalishda 35 million dollarlik 84 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 3 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratilgan. Mebel ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 15 barobarga ortgan.

Mebelsozlar uchun soliq, bojxona to'lovlari bo'yicha qator imtiyozlar joriy etilgani, eksportdagi

xarajatlar hamda xorijdan jalb etilgan mutaxassislar ish haqining qisman qoplab berilishi soha vakillariga katta rag'bat bo'lmoqda.

Bugungi kunda yiliga 300 milliard so'mlik mahsulotlar tayyorlanib, mintaqaa mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Prezidentimiz korxonalar ta'sischi bilan suhbatlashdi.

— O'tgan yillardagi eng katta yutuqlardan biri tadbirkorlarimizda ong o'zgaradi, ishonch ortdi. Bugun ular raqobatbardosh bo'lib, dunyoga chiqyapti. Bular ham faoliyatini odati ishdan, mahalladan boshlagan. Boshqalar ham shunday qilsa bo'ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu yerda aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Andijon viloyatida 41 ta mahalla mebelsozlikka ixtisoslashgan. Masalan, Oltinko'l tumanidagi Ijtimoiyat mahallasida 490 ta xonadonda mebel tayyorlash kooperatsiya usulida yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, yakka tartibda ro'yxatdan o'tgan va o'zini o'zi band qilgan hunarmandlar ham ko'p. Minglab yoshlar "Ustoz — shogird" an'anasi asosida hunar o'rganmoqda.

Shu bois mebelchilikni yanada rivojlantirish bo'yicha ish olib borilmoqda. Andijon va Oltinko'l tumanlarida bunga ixtisoslashtirilgan 2 ta sanoat zonasi tashkil etilmoqda.

Ushbu tajriba asosida viloyatdagi 909 ta mahallaning imkoniyatlari o'rganilib, serdaromad yo'nalishlarga ixtisoslashtirish choralarini muhokama qilindi.

Buning uchun davlat tomonidan infratuzilma yaratilib, moddiy-tashkiliy jihatdan ko'mak beriladi. Maqsad — Andijon viloyatini ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirishga intilish.

Prezident Andijon viloyatida amalga oshirilishi rejalashtirilgan yirik loyihalarni taqdimoti bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, xitoylik investitorlar bilan hamkorlikda jami 1,7 milliard dollarlik 26 ta loyiha ustida ish olib borilmoqda. Ular energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, ta'lim va infratuzilma kabi muhim sohalarni o'z ichiga oladi.

Masalan, minigidro-elektrostantsiyalar, uy-joy va ko'ngil-ochar maskanlar qurish, elektrobustlar va ular uchun akkumulyatorlar, keramogranit va beton panellar, dori vositalari ishlab chiqarish, gilos va rezavor mevalar yetishtirish kabi loyihalar ko'plab ish o'rinlari, iqtisodiy samaradorligi bilan xalqimizga katta manfaat keltiradi.

Davlatimiz rahbari xitoylik investitorlar bilan suhbatlashdi. Ular O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi strategik sheriklik yuksak darajada

chiqqani, mamlakatimizdagi ulkan imkoniyatlar ishbilarmonglarga ishonch berayotganini ta'kidlashdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Marhamat tumanidagi shaxmat maktabi va kutubxonada bo'ldi.

Yurtimiz oldindan salohiyatli shaxmat maktabiga ega. Bugun ham bolalar o'rtasida "aql gimnastikasi"ga qiziqish katta. Ularning bu ishtiyoqini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida Marhamat tumanida ham majmua bunyod etildi. Erkin Vohidov nomidagi ushbu maktabda o'quvchilar darsdan bo'sh vaqtlarida aql mashqidan saboq oladi. Ularning mahoratini oshirish uchun tajribali murabbiylar jalb qilingan. O'quv-mashg'ulot xonalari va musobaqa zali mavjud. Kompyuterlashtirilgan ilg'or dasturlar yoshlarga ham bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yerda saboq olayotgan o'g'il-qizlarning intilishlarini qo'llab-quvvatlab, ezgu tilaklar bildirdi. Bu muassasani boshqa shaxmat maktablari bilan bog'lab, tajriba almashib borish muhimligini ta'kidladi.

Ushbu maktabga tutash Yashlar kutubxonasi ham qurilgan. U keng va shinam, bir vaqtda 150 dan ortiq kitobxonlar mutolaa qilishi mumkin. Kutubxona 30 ming nusxadan ziyod adabiyotlarga ega, qator axborot markazlari tarmog'iga ulangan. Shular bois yoshlarning sevimli maskaniga, intellektual o'yinlar, ijodiy uchrashuvlar, kitob taqdimotlari o'tkaziladigan qaynoq dargohga aylangan.

Prezident shu yerda andijonlik yoshlar bilan muloqot qildi. — Biz iqtisodiyotimizni rivojlantirib, aholi joriy boshiga daromadlarni oshirish, ish joylarini ko'paytirishga harakat qilaymiz. Andijonda ham katta rejalarimiz bor. Bunda avvalo sizlarga tayanamiz. Har bir bilimli yosh — Vatan himoyachisi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ta'lim tizimidagi yangiliklar, yosh avlodga yaratilayotgan sharoitlar, ilmiy-ijtimoiy loyihalarni haqida so'z bordi. Prezident yoshlar bilan yangi tashabbuslar yuzasidan fikrlashdi. Shuningdek, ularning takliflarini qo'llab-quvvatlab, mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Andijon shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan maktab-internatni ham ko'zdan kechirdi.

Mazkur muassasa o'tgan yili 500 milliard so'm Davlat budgeti mablag'larini hisobidan qurilgan. U 504 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, 5 — 11-siniflarda aniq va tabiiy fanlarni chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan. Maktabga o'quvchilar viloyatning barcha shahar va tumanlaridan imtihon asosida olinadi.

Maktab-internatda 60 dan ortiq o'quv va kompyuter xonalari, chet tili sinflari, laboratoriya mavjud.

Shuningdek, 222 o'rinni yotoqxona, oshxona, sport zali zamonaviy jihozlangan.

Prezidentimiz shu yerda o'qituvchilar bilan suhbatlashdi. Maktabning yuqori sinflari bilan oliyohq dasturlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash, bir-birini takrorlaydigan darslarga yoshlarning vaqtini ketkazmasdan, ko'proq amaliyotga yo'naltirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Umuman, maktablarga ta'lim, tarbiya va ma'naviyat bo'yicha yangi muhit olib kirish kerakligi ta'kidlandi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Andijon shahrida bunyod etilayotgan Universal sport majmuasini borib ko'rdi.

Hozirda to'rt ming tomoshabing mo'ljallangan yopiq zal qurilgan. Unda bir nechta sport turi bo'yicha musobaqalar o'tkazish mumkin bo'ladi. Jumladan, joriy yil kuzda futbol bo'yicha jahon chempionatining ayrim o'yinlari shu yerda o'tkaziladi.

Yirik majmuada basseyn, kafe, restoran ham bo'ladi. Mashhur sportchilarning mahorat maktablari uchun ham sharoit yaratiladi. Mashg'ulotlar sport federatsiyalari va oliy ta'lim maskanlari bilan bog'langan holda olib boriladi.

Majmuani samarali ekspluatatsiya qilish, zamonaviy boshqaruvni joriy etish lozimligi aytiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahridagi markaziy qozonxonani borib ko'rdi.

U yaqinda imtiyozli xorijiy kredit evaziga rekonstruksiya qilinib, Xitoyda ishlab chiqarilgan 3 ta energiya tejamkor qozon o'rnatilgan. 28 kilometr issiqlik quvvatlari yetqizilib, 373 dona individual issiqlik punkti tashkil etilgan. Shuningdek, 2 ming kilovatt quvvatli transformator o'rnatilib, yuqori kuchlanishli elektr tarmog'i tutilgan.

Natijada shahardagi 271 ta ko'p qavatli uy va 30 ta ijtimoiy obyektlar markazlashgan issiq suv va issiqlik ta'minotiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bir yilda 16 million metr kub tabiiy gaz, 2 million kilovatt dan ziyod elektr energiyasi tejab qolinadi.

Shu yerda 2024 — 2026-yillarga mo'ljallangan navbatdagi loyihalarni haqida axborot berildi. Unga ko'ra Andijon shahridagi yana 5 ta qozonxonani rekonstruksiya qilish, 33 kilometr issiqlik tarmoqlarini qurish va 114 ta ko'p qavatli yuqori ichki isitish tizimlarini yangilash rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari bu loyihalarni jadallashtirib, aholini barqaror issiqlik bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimizning Andijon viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Faxriddin UBAYDULLAYEV,
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Maibuat xizmati surati.

Dil so'zi

«QADR AYOLDAN BOSHLANSA, QADRIMIZ YANADA BALAND BO'LADI!»

Prezidentimizning ushbu so'zlari ruhimni ko'tarib yubordi

Davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida korxonamizda bo'lib, jamoamiz bilan dildan suhbatlashgani hayotimdagi tarixiy kunlardan biri sifatida yodimda qoldi.

To'g'risi, Prezidentimiz shaxdam qadamlar bilan biz tikuvchilik qilayotgan pavilyonga kirib kelganida, bir zum hayajonga tushdik. Bu insonning salobatidan biroz taraddudlanib qoldik. Biroq Shavkat Mirmonovich biz bilan

samimiy suhbatlashdi, hol-ahvol so'radi, mahsulotlarimizni, ishchilarga yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Suhbat jarayonida Prezidentimizning naqadar ochiqko'ngil, insonlarga g'amxo'r ekanini yana bir bor angladik. Davlatimiz rahbari ayolni e'zozlash, ular uchun barcha qulay sharoitni yaratib berish o'ladagi to'kislik, xotirjamlik, jamiyatdagi hamjihatlikda muhim o'rin tutishini ta'kidladi.



Tahlil

YUTUQLAR BOR, KAMCHILIKLAR HAM YO'Q EMAS

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas. Zero, qaydardagi tadbirkorlik keng rivoj topsa, o'sha joyda taraqqiyot bo'ladi. Infratuzilma yaxshilanadi, aholining turmush darajasi yuksaladi, eng muhimi, kambag'allik sezilarli darajada qisqaradi.

Aytish joizki, bu jarayonlarda Oliy Majlis Senati a'zolarining ham katta hissasi bor. Gap shundaki, parlament yuqori palatasi tomonidan joylarda o'rganishlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ish samaradorligi oshishida muhim o'rin tutmoqda.

Xususan, Senat Kengashining 2023-yil 12-oktabrdagi qarori bilan tuzilgan ishchi guruhi tomonidan Toshkent

viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar holati o'rganib chiqildi. E'tiborlisi, o'rganish natijalari yaqinda bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senatining ellig'inch yalpi majlisida muhokamadan o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan vazifalar belgilab olindi, tegishli qaror qabul qilindi.



“Hukumat soati”

Geologiya-qidiruv: IMKONIYATLARDAN QAY DARAJADA FOYDALANILMOQDA?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi. Unda "Geologiya-qidiruv ishlarini samaradorligini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masala muhokama qilindi.

Mazkur masala yuzasidan deputatlarning savollariga Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri B. Isomov javob berdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda yurtimizda tog'-kon sanoati va geologiya sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, respublikamizning mineral xomashyo bazasini barqaror rivojlantirish,

investitsiyalarni jalb qilish va foydali qazilmalarning yangi konlarini aniqlash borasida izchil islohotlar ro'yog'ga chiqarildi. Geologiya ishlarini sohasidagi loyihalarga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qonunchilik bazasi takomillashtirildi va boshqa zarur sharoitlar yaratildi.



YUTUQLAR BOR, KAMCHILIKLAR HAM YO'Q EMAS

Ma'lum bo'lishicha, viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish borasida bir qator ijobiy natijalar qo'lga kiritilgan. Natijada esa yalpi hududiy mahsulot hajmi 5 foizga yoki 107,9 trln. so'mga oshgan va aholi jon boshiga YAHM hajmi 35,7 mln. so'mni va o'sish sur'ati 3,1 foizni tashkil etgan.

Investitsiya dasturlari doirasida 2023-yilning 1-dekabriga qadar 958 mln. dollarlik 763 ta loyiha ishga tushirilib, 23 296 ta ish o'rni ochilgan. Masalan, "Yoshlik" koni o'zlashtirilishi hisobiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 12,8 foiz o'sib, 44,4 trln. so'mni tashkil etgan. Ayni chog'da o'tgan yilning 1-dekabr holatiga 901,3 mln. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilganligi ham e'tiborga molik.

Yana bir misol: oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 30 063 ta aholi va tadbirkorlik subyektiga jami 743,5 mlrd. so'm kredit mablag'lar ajratilgan.

Toshkent viloyatida bunday yutuq va natijalar talaygina. Ammo zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan bir qator kamchilik va muammolar ham borki, ulardan ko'z yumib bo'lmaydi.

Birinchi bo'lib viloyatning ayrim tuman va shaharlarida faoliyat ko'rsatmayotgan tadbirkorlik subyektlari soni oshganini keltirish zarur. Jumladan, Parkent tumanida 874 ta, O'rta Chirchiq tumanida 143 ta, Bekobod shahrida 461 ta, Piskent tumanida 542 ta va Quy Chirchiq tumanida 483 ta tadbirkorlik subyekti o'z faoliyatini to'xtatgani achenari, albatta.

O'rganish jarayonida faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslardan 15 276 tasining yerlari olib qo'yilganligi, 1 646 tasi esa iqtisodiy qiyinchilikka dosh berolmaganini aniqlandi. Bu esa joylardagi mutasaddilar uchun o'ziga xos "ogohlik qo'ng'iroq" bo'lishi lozim.

Bunday kamchiliklar bo'sh turgan bino va inshootlarga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish yo'nalishida ham kuzatildi. Bo'stonliq tumanida 7 ta, Angren va Ohangaron shaharlarida hamda Ohangaron tumanida 4 tadan, Bo'ka, Quy Chirchiq, Piskent, Chinoz, Yangiyo'l tumanlari va Olmalik shahrida 3 tadan, Bekobod, Oqqo'rg'on, Parkent, Toshkent tumanlari va Bekobod shahrida 2 tadan obyekt allaqachon muddati o'tgan bo'lsa-da, sotilmasdan kelayotgani aniqlandi.

Bundan tashqari, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Kadastr agentligi, Qurilish va uy-joy muhojasi xo'jaligi vazirligi tomonidan monitoring yuritilmaganligi oqibatida viloyatda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun onlayn-auksion savdolariga chiqarilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 218 ta bo'sh turgan 88,1 gektar yer uchastkasidan 428 ta holatda vakolatli tashkilotlar tomonidan kelishish yoki xulosa berish muddatlari buzilgan.

Davlat dasturlari doirasida yangi ish

o'rinlarini yaratish istagidagi tadbirkorlar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish borasida ham muammolar yo'q emas.

Tadbirkorlarni manfaatli hamkorlik asosida kambag'allikka qarshi kurashish jarayonlariga jalb qilishga qaratilgan "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturiga binoan hokim yordamchilari yoki Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining tadbirkor loyihasini joyiga chiqqan holda 5 kun ichida o'rganib, natijasi bo'yicha taklif va fotosuratlarni "Hamkor tadbirkor" axborot tizimiga kiritishi belgilangan bo'lsa-da, 13 ta tadbirkor arizasi vaqtida ko'rib chiqilmagan.

Viloyatda tadbirkorlik subyektlari o'rtasida erkin raqobat muhitini ta'minlash borasidagi ishlarda ham ayrim kamchiliklar kuzatildi.

Viloyatdagi nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlarda 58 ta qonun buzilishi, shundan 21 tasida noqonuniy tekshirish va 27 tasida tekshirish o'tkazish tartibini buzish holatlariga yo'l qo'yilgan.

Shu singari kamchiliklar "Tadbirkor virtual ofisi" axborot portali orqali kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish borasida kuzatilgani ham hech kimni befarq qoldirmaydi.

Xo'sh, keltirib o'tilgan nuqsonlarni bartaraf etish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?

Senatning sal ilgariroq aytib o'tilgan yalpi majlisida bu boradagi takliflarimizni keltirib o'tdik.

Ular quyidagilardan iborat:

■ **tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishida mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, Senat qarori bilan tasdiqlash;**

■ **faoliyati to'xtatilgan tadbirkorlik subyektlariga amaliy yordamlar ko'rsatish va tugatilishining oldini olish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash;**

■ **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;**

■ **hududlarning xususiyatlari, "o'sish nuqtalari"ni va salohiyatini inobatga olib, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;**

■ **tadbirkorlarga kredit rasmiylashtirishda mulklarni baholash va uni tijorat banklari tomonidan garov ta'minoti sifatida qabul qilish masalasini o'rganish.**

Shu va boshqa takliflar Senat qarorida o'z ifodasini topgan bo'lib, uning ijrosini ta'minlash biz, senatorlardan ham katta mas'uliyat talab qilishini yaxshi his etamiz.

Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatning Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi.

Geologiya-qidiruv: IMKONIYATLARDAN QAY DARAJADA FOYDALANILMOQDA?

Ma'muriy islohotlar doirasida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tashkil etildi hamda uning ustuvor faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi. Shuningdek, 2023 — 2025-yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Natijada geologiya-qidiruv ishlari oldingi davrdagiga nisbatan uch barobar oshgan. 3D seysmorazvedka, aerogeofizika, kosmogeologiya, raqamli geologiya kabi ilg'or usullarni joriy etish boshlangan. Geologiya-qidiruv ishlari 2-3 kilometr dan 4-5 kilometr chuqurlikkacha tushirilganligi natijasida yangi gaz zaxiralari aniqlangan, qo'shimcha 4,4 mlrd. kub metr gaz qazib olingan.

Amalga oshirilgan geologiya-qidiruv ishlari doirasida respublikamizning hududi regional geologik tadqiqotlar bilan to'liq qamrab olingan. 2023-yilda 160 ming kv. km. maydonning raqamli geologik xaritalari tuzilgan, 12 ming kv. km. maydonda kosmogeologik va geokimyoviy tadqiqotlar o'tkazilgan.

"Hukumat soati"da deputatlar yer osti suvlaridan samarali foydalanish hamda quduq burg'lash tizimini takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan ishlarga oid bir qator savollarni o'rta qo'yildi.

Vazir ma'lum qilishicha, hozirda respublikamizda 97 ta yer osti suv koni mavjud bo'lib, ularning resurslari 64 mln. kub m/sutka, ya'ni umumiy suv resurslarining 25 foizini tashkil etadi. Bugungi kunda yer osti suvlari xalq xo'jaligining barcha tarmog'ida keng foydalanilayotgan bo'lib, sutkasiga 18,6 mln. metr kub miqdorida suv olinmoqda va bu, asosan, chuchuk suvlarga to'g'ri kelmoqda. Ichimlik suvining 67 foizi yer osti suvlari hisobidan amalga oshiriladi.

So'nggi yetti yilda 878 ming kub m/sutka miqdorida yer osti suv zaxiralari tasdiqlanib, 1 mln. aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilangan hamda 155 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlari foydalanishga kiritilgan. Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish

maqsadida yer osti suvlari sathi pasayib ketayotgan 21 ta hududda quduq burg'lash va ulardan foydalanish bo'yicha moratoriy joriy qilinganligi qayd etildi.

Deputat Azamjon To'laboyev mamlakatimizda mavjud 47 mingta eksploatatsiyadagi quduqning 42 mingtasida suv hisoblash vositalari o'rnatilmagan sabablari bilan qiziqib, bu borada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar haqida so'radi.

Vazirlik mas'ul vakili ta'kidlashicha, ushbu foydalanuvdagi quduqlarning 11 mingtasi "O'zsvataminot" AJga, 8,2 mingtasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning qoshidagi nasos stansiyalariga, 6 mingdan ortig'i shaxsiy fermer xo'jaliklariga tegishli bo'lib, qolganlari hokimliklar, yirik sanoat korxonalarini va xususiy tadbirkorlar tasarrufida. Hozirda tegishli vazirlik va idoralardan hamkorlikda yer osti quduqlariga suv hisoblash vositalarini o'rnatish va plomabal ishlari jadallashtirishga qaratilgan



bitimlar loyihasi ishlab chiqilgan. Qolaversa, 2024-yil 1-yanvardan boshlab suv hisoblagichlarni o'rnatmagan tadbirkorlarga ichimlik suvi ta'minotidan foydalanish talablari o'zgartirilganligi bu boradagi kamchiliklar bartaraf etilishiga xizmat qilishi qayd etildi.

Xalq vakillari, shuningdek, kon-metallurgiya sanoatida ekologik talablarni va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini o'z ichiga oluvchi "ekologik menejment" tizimini joriy etish, qazib olinayotgan ko'mirlar sifatini oshirish, daryo o'zanlari va qirg'oqbo'yi hududlarida faoliyat

olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarini nazorat qilishda vazirlik tomonidan bajarilayotgan ishlar haqidagi savollarga ham javob oldilar.

Shu bilan birga, deputatlar tomonidan sohada hali foydalanilmagan imkoniyatlar yetarli ekanligi, konlar va ularni o'zlashtirish ko'lamlari kengaytirish imkoniyatini samarali jalb qilishni davom ettirish, bu orqali geologik qidiruvlar va qazib olish natijadorligini oshirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

Mushohada

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH ZARURATI VA MUHIM TASHABBUSLAR

Atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Binoabarin, umumxalq referendumini asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarning qulay ekologik muhitda yashashi, tabiiy resurslarga, ulardan oqilona foydalanishga bo'lgan huquqi mustahkamlandi. Shuningdek, so'nggi besh yilda sohaga oid 20 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Ekologiyaning har bir yo'nalishi bo'yicha davlat dasturlari, strategiyalar ishlab chiqildi.

Albatta, bularning barchasi mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim dasturilamal bo'lmoqda.

Shu bilan birga, jamoatchilik tomonidan keng muhokama qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ham shu yo'nalish doirasida bir qator maqsadlar nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi, cho'llanish, biologik xilmaxillikning qisqarishi kabi ekologik muammolar kuchayayotgani taraqqiyotga jiddiy xavf solmoqda. Shu bois atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylandi.

Shu o'rinda so'nggi yillarda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha erishilgan natijalarga doir ayrim raqamlarga to'xtalib o'tsak.

Hozirgi kunda Orolbo'yi hududida maxsus rezolyutsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ga muvofiq, 71 banddan iborat chora-tadbirlar, 65 ta ustuvor innovatsion loyiha amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Yurtboshimiz tashabbusi bilan Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, uning qurigan tubida o'rmonlashtirish ishlari amalga oshirish, hudud aholisi farovonligini yuksaltirish bo'yicha ulkan ishlar ro'yobga chiqarilmoqda.

Birgina misol, so'nggi besh yil davomida Orolning qurigan tubida qariyb 2 mln. gektar maydonga saksosul, cherkes, sho'rg'a va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik urug'larini sepildi, ko'chatlari ekildi. Ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" barpo etish ishlari jadal olib borilayotib. Bu, o'z navbatida, havoga ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zararchalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholi hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sirini yanada yumshatish imkonini beradi.

Mintaqadagi yana bir ekologik

muammo — suv resurslari taqchilligining oldini olish borasida ham aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2023-yilda 413,1 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi. Shuningdek, mamlakatimiz aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash davlat siyosati darajasiga olib chiqilishi natijasida so'nggi olti yilda sohaga Davlat budgetidan 14 trln. 500 mlrd. so'm ajratilgan, 31 ming kilometr ichimlik suvi va oqova tarmoqlari o'tkazilgan, 1200 ta suv inshootida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi, 6,5 mln. aholi yashaydigan xonadonlarga ilk bor toza ichimlik suvi kirib borgan.

Ekologik muammolarning yechimlaridan biri hisoblangan "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha mamlakatimizda muhim qadamlar tashlandi. Ya'ni "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi, 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlandi.

2023-yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari xorijlik hamkorlar bilan birgalikda umumiy quvvati 2400 megavatt bo'lgan oltita yirik quyosh hamda shamol stansiyasini tarmoqqa ulash ishlari start bergani ushbu yo'nalishdagi islohotlarning amaliy ifodasi bo'ldi.

Bugungi kunda atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishda ekologik toza transport vositalari miqdorini oshirish, yoqilg'i sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ham bir qator ishlar ro'yobga chiqarilmoqda. Xususan, Toshkent shahrida elektrobustlar harakati yo'lga qo'yilgani ham bunga yaqqol misol. So'nggi besh yilda atrof-muhit monitoringi, parlament va jamoatchilik nazorati tufayli atmosfera tashlanayotgan tashlamalar miqdori 11 foizga kamaygan. Biroq bu borada bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar hali ko'p.

Umuman, sohada ekologik innovatsiyalarni joriy etish, ekologik toza, energiya samarador va resurstejamkor loyihalarni ro'yobga chiqarish nafaqat yurtimiz, balki global tusdagi ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish imkonini beradi.

Xayrullo G'AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari,
Ekologik partiya fraksiyasi rahbari.

«QADR AYOLDAN BOSHLANSA, QADRIMIZ YANADA BALAND BO'LADI!» Prezidentimizning ushbu so'zlari ruhimni ko'tarib yubordi

Ayniqsa, keyingi paytlarda hayotimizda qanday o'zgarishlar bo'layotgani haqida so'raganida to'liqlanib ketdim. Negaki, jamoamizdagi xotin-qizlar orasida bir paytlar xorijda mehnat qilganlar bor. Ular o'z vaqtida tumanimizda ish o'rni bo'lmagani bois respublikamizdan tashqarida mehnat qilishga majbur bo'lgan. Shukrki, bugun Vatanimizga qaytishdi, chunki yurtimizda, o'zlar yashab turgan uyidan uzoq bo'lmagan hududda ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat boshladi, ish o'rinlari ochildi. Jumladan, Andijonda ayollar bandligi uchun juda mos bo'lgan tekstil tarmog'i zamonaviy andozalar darajasida rivojlanib bormoqda. Xususan, bugungi kunda birgina bizning jamoada ishchilari soni 3 ming 500 nafarni tashkil etadi.

Davlatimiz rahbarining "Qadr ayoldan boshlansa, qadrimiz yanada baland bo'ladi!" degan so'zlari ruhimni ko'tarib yubordi. Men o'z hayotimda bu gapning mag'zini chaqib, shukronalar keltirmoqdaman. Chunki ro'zg'orim but, oilamda xotirjamlik, farzandlarim, yaqinlarim yonimda. Ertangi kunimdan ko'nglim to'q. Ish joyimda keng imkoniyatlar mavjud, e'tibor va e'zozdan shodlanib bugun kechagidan ortiqroq mehnat qilishga intilyapman. Bir ayolga bundan ziyod baxt bormi?!

Mamlakatimizda biz, ayollarning qadrimiz oshgani qadimimizni tikladi. Orzularimiz ro'yobi uchun kurashishga kuch berdi. G'ayrat-shijoatimizni oshirdi. Davlatimiz rahbari bilan mulotoqimiz esa qalbimizga olov yoqdi. Endi ulkan rejalar tuzib, yangi-yangi marralar sari olg'a qadam bosamiz. Chunki bizni ko'lab turgan bunyodkor xalqimiz, mehribon Prezidentimiz bor.

Ismigul YO'LDOSHEVA,
"Asaka tekstil" klaster to'qimachilik korxonasi tikuvchisi.



VAQTINGIZNI «O'G'IRLATMANG»

Bugun mobil telefonlardan foydalanish kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan ulgurdi. Bu quvonarli holat, albatta. Chunki uning yaratilishi texnik taraqqiyotning haqiqiy inqilobidir. Barchaning sevimli texnikasiga aylangan smartfon deyarli har ikki kishining birida bor.

Fikr

Keyingi paytlarda smartfonlar yoshlarning ongu shuurini, e'tiborini ohanrabodek o'ziga tortib bormoqda. Vaholanki, uning foyda-zararini kattayta kichik yaxshi biladi. Lekin shunga qaramay ko'pchilikda bu menga taalluqli emas, men barcha axborotni telefon orqali olaman, degan qarashlar ustunlik qiladi.

Biroq telefon va undagi tasvirlar aqlni rom etib, o'ziga mute qiladigan virus ekanligini negadir hali-hamon tushunib yetmayapmiz. Yoshlarni qo'ya turing, hatto ayrim ota-onalar ham telefonga mukkasidan ketgani, farzandiga kitob o'qitish o'miga, tinch o'tirsini, deb unga o'sha matohni qo'shmo'lab topshirayotgani kishini o'ylantiradi, mushohadaga chorlaydi.

Mutaxassislar ham internet orqali tarqatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega ekanligi haqida xo'p va ko'p gapirmoqda. Ularning aytishicha, bolalarning telefonidan ko'p foydalanishi qo'shimcha kasalliklar olib kelishi

mumkin. Xususan, ko'zning qurish sindromi, "yolg'ondan minus" holatida bola uzoqni yaxshi ko'rolmaslikni boshlaydi. Bu bora-bora "rost minusga" — uzoqni yaxshi ko'rolmaslikka olib kelishi mumkin.

Xo'sh, shularni ko'rib-bilib turib, nega ota-onalar to'g'ri xulosa chiqarib farzandlari taqdiri, kelajagi va salomatligi haqida qayg'urish o'miga bunga befarq qaramoqda? Axir ahvol shu zaylda davom etaversa, oxir-oqibat nima bo'ladi?

Yosh avlodning faolligi har qachongidan ham muhim, ular jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi asosiy kuchidir. Aynan ular zimmasiga yorqin kelajak qurish vazifasi ishonib topshirilgan. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, "Biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz".

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanmoqda, odamlarning qarashlari

o'zgarimoqda. Bunday paytda dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada hushyor va e'tiborli bo'lishni talab etadi. Chunki globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bu, o'z navbatida, o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamlari yanada kengaytirish lozimligini ko'rsatadi. Shu bois yurtimizda maktab o'quvchilarining mobil telefonidan foydalanishiga chekllovlar o'rnatish borasida amaliy qadamlar qo'yilgan. Masalan, uyali telefonni ishlatish aqliy qobiliyatni pasaytirib, asabiylashtirishga olib kelishi, o'quvchini va uning atrofida gilarni mashg'ulotlardan chalg'itishi haqida OAVda turli chiqishlar tashkil qilinmoqda. Bolalarni ko'proq kitob o'qishga o'rgatishga qaratilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega videorezlar tayyorlanib namoyish etilayotir.

Ushbu masalaga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki qo'l telefonlari va internet tarmog'ida axloqqa zid tasvirlar shu darajada

ko'payib ketganki, bu hol yoshlarning odob-axloqi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xo'sh, ushbu muammoga kim aybdor? Albatta, barchamiz aybdormiz. Sababi bugun biz yoshlarning qiziqishlari, xohish-istaklari, orzu-maqsadlari bilan qiziqmay qo'ydik.

Har bir ota-ona bolasi bilan ko'proq suhbatlashib, ularni qiziqitirgan savollarga javob bersa, nima to'g'ri-yu, nima noto'g'ri ekanligini tushuntirsa bolalarning qalbidagi bo'shliqni telefon zabt eta olmaydi. Shunday ekan, hayot tashvishlaridan biroz chekinib, farzandingiz tarbiyasiga uchun vaqt ajratgan. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, "Agar bir kishi yoshligida nafsini buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishidan yaxshilik kutmak, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabidir".

Muxtasar aytganda, smartfonlar, avvalo, insonga berilgan eng qimmatli narsa — vaqtni "o'g'irlamoqda". Demak, farzandimizning istiqbolini, kelajagi porloq bo'lishini istar ekanmiz, ular tarbiyasiga e'tibor bilan qaraylik. Zotan, bu ularning komil shaxs sifatida shakllanishiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

G'ayrat ABDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



IQTISODIYOTIMIZNING "O'SISH NUQTALARI"

O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadi

Taraqqiyotga ko'z tikkan har qaysi mamlakat raqobatbardosh iqtisodiyotga ega bo'lishni istaydi. Rivojlanishning eng maqbul modeli ham shu. Ammo bunga erishish oson emas. Avvalo, sohani modernizatsiya qilish barobarida, jamiyat hayotining barcha jabhasini liberallashtirish zarur.

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bu boradagi ustuvor maqsadlarga keng o'rin ajratilgan. Muhimi, islohotlar markazida inson omili turibdi.

Shu tamoyil asosida davlatimiz makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan yangilanishlarda sobitqadam.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish choralarini ko'riyapti. Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini ko'paytirish maqsad qilingan. Hududlarning infratuzilma tizimi hamda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlantirish ham strategik vazifalarimiz sirasidan.

Xo'sh, bu sohada izchil sa'y-harakatlar o'tgan yilda qanday amaliy samaralar berdi? Qayd etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'sish dinamikasi va rivojlanish tendensiyalariga qanchalik mos?

Tahlil va taqqos

YAIMda qaysi tarmoqlar ulushi yuqori?

Dastlabki baholashlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarida 1 kvadrillion 66,6 trilyon so'mni tashkil etdi va bu 2022-yildagiga nisbatan 6,0 foizlik o'sish, degani. YAIM tarkibida avvalgi yildagiga nisbatan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari tarmog'ida — 4,1, sanoatda — 6,0, qurilish sohasida — 6,4, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda — 10,2, tashish, saqlash, axborot va aloqa xizmatlarida — 12,3 hamda boshqa xizmat tarmoqlarida 4,5 foiz o'sish kuzatildi.

Iqtisodiyot tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari ulushi — 24,3, sanoat — 26,1, qurilish — 6,2 hamda xizmatlar sohasi ulushi 43,4 foizni tashkil etdi.

Binobarin, xizmatlar sohasining YAIM o'sishida hisssasi — 2,6, sanoat tarmog' ulushi — 1,5, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari hisssasi — 1,0, qurilish sektori ulushi 0,4 foizga teng bo'ldi.

Shuningdek, 2023-yilda respublika bo'yicha YAIM shakllanishida Toshkent shahri hisssasi eng yuqori bo'ldi — 17,1 foiz. Toshkent va Navoiy viloyatlari esa 10,1 va 7,7 foizlik ko'rsatkichlar bilan keyingi o'rinlarni band etdi.

O'z navbatida, 2023-yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi joriy narxlarida 29,3 mln. so'mni tashkil etib, 2022-yildagiga nisbatan 3,8 foiz o'sdi.

Sanoatda salmoqli natijalarga erishildi

Sanoat — iqtisodiyotning drayveri. Shu bois yurtimizda bu sohani rivojlantirish uchun katta kuch va imkoniyatlar safarbar etilyapti. Yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish masalasi doimiy e'tiborda. Ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlarini transformatsiya qilish jarayonini davom ettirilmoqda. Natijada belgilangan marralarga qadam-baqadam yaqinlashyapmiz.

Masalan, dastlabki hisob-kitoblari 2023-yilda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 69,4 mingdan ziyod sanoat korxonalarini tomonidan 655,8 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6 foizga oshganini tasdiqlaydi. Bu borada eng yuqori ulush (84,4 foiz) qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati ulushi — 8,4, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati — 6,7, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish tarmoqlari hisssasi 0,5 foizni tashkil etdi.

Tahillarga ko'ra, o'sish sur'atlarining asosiy omili qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hajmi o'tgan yildagiga nisbatan 6,7 hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmoqlarida 9,7 foiz oshgani bilan bog'liq.

Shu bilan birga, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yildagiga nisbatan — 6,2, to'qimachilik mahsulotlari hajmi esa 6,4 foiz ko'paydi. Bunday ijobiy natijalarga erishishda 2023-yilda 14,1 mingdan ortiq yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarining o'rni alohida bo'ldi.

Binobarin, 2023-yilda o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning qariyb yarmi, ya'ni 53,3 foizi aynan sanoat sohasini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga yo'naltirilgani respublikamizda import o'rini bosuvchi va eksportkor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmog'ida.

Umuman, o'tgan yili sanoat tarmoqlariga kiritilgan investitsiya va kreditlar hajmi 140,0 trln. so'm, to'g'ridan-to'g'ri chet el sarmoyalari miqdori esa 68,6 trln. so'mdan iborat bo'ldi. Bunday mablag'lar hamda tashkil etilgan 10 ta yirik ishlab chiqarish korxonasi to'liq quvvatda faoliyat boshlashi natijasida 1,5 trln. so'mdan ortiq sanoat tovarlari tayyorlandi. Chunonchi, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ tomonidan fosfat, "Jizzakh cement plant" MCHJda sement, "Angren pipe plant" MCHJ tomonidan

esa misdan quvurlar va trubkalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Yana bir muhim tahlil: mamlakat yalpi ichki mahsulotining doimiy o'sishi raqobatbardosh tayyor tovarlar ishlab chiqarish, zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalari jadal rivojlantirish hisobiga ta'minlanmoqda. Bu esa yurtimiz eksport salohiyatini yuksaltirishda asosiy omil bo'layotir.

Misol uchun, 2023-yilda respublika eksport hajmi 24,4 mlrd. dollarni tashkil etdi. Ya'ni 2022-yildagiga nisbatan 23,8 foiz o'sish qayd etildi. Bunda to'qimachilik mahsulotlari hajmi 3,0 mlrd., oziq-ovqat tovarlari miqdori 1,8 mlrd., mashina va transport asbob-uskunalar hajmi 1,3 mlrd. dollarga teng bo'ldi. Tashqi bozorga chiqarilgan mashina va transport asbob-uskunalarining asosiy, ya'ni 0,5 mlrd. dollarlik qismi avtomobillar eksportiga to'g'ri keldi.

Qisqacha aytganda, bugun ishlab chiqarish iqtisodiy integratsiya jarayonlari o'zaro muvofiqlashtirish va soha tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam bermoqda.

Agrar sohada qanday strategiyamiz bor?

Davlatimiz rahbari faqat bugunni emas, balki ertangi kunni ham o'ylab, uzoqni ko'zlagan holda islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish vazifasini qo'ymoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilingan. Unga muvofiq, mazkur soha iqtisodiyotining asosiy "o'sish nuqtasi" bo'lishi kutilyapti. Bu orqali ming-minglab ish joylari yaratilishi odamlarning daromadi yanada oshishiga zamin hozirlaydi. Ana shu yo'nalishdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar o'z amaliy samaralarini bera boshlagan.

Masalan, davlat tomonidan agrar sohani qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy manfaatdorligini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida 2023-yil yakuni bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining umumiy hajmi 426,3 trln. so'mni tashkil etib, 2022-yildagiga nisbatan 4,1 foizga oshdi.

Fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari yanada qulay sharoitlar yaratilib, ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yer egalari uchun eksportkor mahsulot yetishtirish bo'yicha bilimni mustahkamlash, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilyapti. Shu tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hamda 29,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmog'ida.

Klaster tizimining joriy etilishi sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirish, reja ortidan quvish va majburiy mehnat kabi holatlarga butunlay chek qo'yishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotir.

Respublikada boshqoliq don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishni rag'batlantirish tizimi joriy etilgani ham muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lmoqda. Jumladan, 2023-yilda respublika bo'yicha jami 8,4 mln. tonna (105,5 foiz) don va dukkakli don ekinlari yetishtirildi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 23-noyabrda tegishli qaroriga asosan, "temir daftar", "ayollar daftar", "yoshlar daftar"ga kiritilgan fuqarolarga dehqonchilik bilan shug'ullanishlari uchun 0,1 gektardan 1 gektargacha yer maydonlari ajratib berilishi ham amalda o'zini oqladi.

Qayd etish lozimki, aksariyat turdagi noz-ne'matlar dehqon va tomorqa xo'jaliklari tomonidan yetishtirilmoqda. Jumladan, o'tgan yili umumiy kartoshka hosilining — 69,9, sabzavotlarning — 59,9, mevalarning 51,4 foizi ular hissasiga to'g'ri keldi. Don va dukkakli don ekinlarining 78,3 foizi fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirildi.

Chorvachilik va baliqchilik sohalari ham davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilmog'ida. 2023-yilda respublika bo'yicha tirik vaznda jami go'sht ishlab chiqarish hajmi 2,8 mln. tonna (o'tgan



yildagiga nisbatan 103,9 foiz), sog'ib olingan suv 127,0 mln. tonna (102,9 foiz), tuxum 8 487,5 mln. dona (104,4 foiz) hamda ovlangan baliq 198,9 ming tonna (107,3 foiz)ni tashkil etdi.

Kelgusidagi vazifalar ham aniq. Paxta va g'alladan bo'shagan maydonlarda eksportkor, ichki va tashqi bozorda talab yuqori bo'lgan ekinlar ekish, shuningdek, tomorqa maydonlari samarasini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish maqsad qilingan.

Xizmatlar sifati rivojlanish tendensiyalariga mosmi?

Hap bip coha pivojini bog'lovchi bir nuqta bor. Bu — xizmat ko'rsatish. Mamlakatimiz iqtisodiyotida bu sektor ulushini oshirish muhim. Shu sababli xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatiini yaxshilash bilan bog'liq muammoli masalalar tizimli hal etilmog'ida. Bu borada tabdirlar subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash hamda ularning g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish choralarini ko'riyapti. Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 11-mayda imzolangan "Xizmatlar to'g'risida"gi qarori shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Ushbu hujjat ijrosi doirasida moliya sektoriga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va logistikani takomillashtirish orqali mamlakat transport sektorini modernizatsiyalash, IT sohasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish va startaplar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, turizmni rivojlantirishga katta mablag' yo'naltirilyapti. Bu esa mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarni soni tobora ortishiga turki bo'lyapti.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar — dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 470,3 trln. so'mni tashkil etib, 2022-yildagiga nisbatan 13,7 foiz o'sdi. Bunga moliyaviy xizmatlar — 20,6, savdo xizmatlari — 10,2, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari — 24,6, ta'lim sohasidagi xizmatlar 22,8 foizga o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, moliyaviy xizmatlar hajmining oshishida bank tizimi barqarorligini ta'minlash bo'yicha bajarilgan chora-tadbirlar, istiqbolli investitsiya loyihalari kreditlashning kengayishi, valyuta siyosatini liberallashtirish islohotlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Transport xizmatlari hajmi 108,5 trln. so'mga yetib, 108,0 foiz o'sish qayd etildi. Bu, asosan, temir yo'l transportida ko'rsatilgan xizmatlar, Rossiya va Tojikistondan tranzit, shuningdek, Tojikiston va Afg'onistonga yo'nalishlar bo'yicha yuk tashish hamda Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistondan import qilinadigan mahsulotlarni tashish hajmi o'sishi bilan bog'liq.

Aloqa va axborotlashtirish sohasidagi ijobiy sur'atlarni esa internetga keng polosali ulanish, stasionar va mobil aloqa operatorlari, provayderlarga kanallarni ijaraga berish, mahalliy va xalqaro telefoniya, uyali aloqa, IP telefoniya, IPTV hamda videolarga xizmatlari ortishi bilan izohlash mumkin.

2023-yilning yanvar — dekabr oylari yakunlariga ko'ra, savdo xizmatlari hajmi 110,7 trln. so'mga yetib, o'sish sur'ati 110,2 foizni tashkil etdi. Bu natijalar avtomobil va mototsikllar ulgurij hamda chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlari 29,4 foizga ortishi hisobiga ta'minlandi.

Ta'lim sohasida xizmatlar o'sish sur'ati esa 122,8 foizga yetdi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining yangi filial va fakultetlari, yurtimizda to'lov-shartnoma asosida qo'shimcha qabul o'rnlari ochilishi muvaffaqiyatli poydevori bo'ldi.

O'z navbatida, 2023-yil davomida mamlakatimizga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 6 626,3 ming kishini tashkil etib, 2022-yildagiga nisbatan 26,6 foizga oshgani quvonarli ko'rsatkich.

Bundan tashqari, onlayn turizm ommalashmog'ida. Karshter, valet-parking, keytering, agroturizm, yotoxonalar va oilaviy mehmon uylari, xalq tabobati, uy hayvonlari uchun mehmonxonalar (sitting) kabi yangi xizmat turlari jadal rivojlanypati.

Albatta, bularning barchasi yangi ish o'rnlari yaratish, tabdirlarini ravnaq va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash yo'lidagi dadil qadamlardir.

Investitsiya ertamizni kafolatlaydi

Taraqqiyotga shiddat bag'ishlaydigan, yangilanishlar piligini ko'taradigan bir muhim vosita bor. Bu — investitsiya. Qulay va jozibador sarmoyaviy muhit yaratish shuning uchun ham ahamiyatli. Ayni sababdan yurtimizda investitsiya loyihalari boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilyapti. Natijalar quyidagi tahlillarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Misol uchun, 2023-yil yanvar — dekabr oylarida O'zbekiston bo'yicha jami 352,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu — 2022-yildagiga nisbatan 122,1 foiz o'sish ko'rsatkichi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoya va kreditlar hisobidan Sirdaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida elektr stansiyalari qurilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida Tebinbuloq temir ruda koni o'zlashtirilishi hamda ishlab chiqarish va metallurgiya majmuasi barpo etilishi, Toshkent viloyatida "Yoshlik-1" konida amalga oshirilayotgan loyihalarning mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishdagi hisssasi katta.

Muhimi, bunday misollar juda ko'p. Xorijiy investitsiyalar jug'rofiyasiga nazar tashlasak, o'tgan yili jami o'zlashtirilgan chet el sarmoyalarning 25,6 foizi yoki 48,1 trln. so'mi Xitoy hissasiga to'g'ri keldi. Rossiya bu borada (13,4 foiz) ikkinchi, Turkiya esa (6,4 foiz) uchinchi bo'ldi.

Yurtimiz hududlari miqyosida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori uchlikni Toshkent shahri (67,9 trln. so'm), Toshkent viloyati (44,4 trln. so'm) hamda Buxoro viloyati (31,3 trln. so'm) egalladi.

Bunday yuqori investitsiyaviy faollik tufayli, jumladan, Toshkent shahrida ko'p tarmoqli klinikalar, joylarda yiliga 21,4 ming tonna bioklasit asosidagi polipropilen plyonka ishlab chiqarish korxonasi, yillik quvvati 2,5 mln. tonnaga teng sement zavodi, 10 ming tonna tola tayyorlashga mo'ljallangan fabrika, 2 ming tonna bazalt tolasi ishlab chiqarish quvvatiga ega zavod va boshqalar ishga tushirildi.

Yangi O'zbekistonning yangi qiyofasi yaratilmog'ida

Obod manzillar — yurt ko'rki. Qolaversa, bunyodkorlik ko'lami turmush farovonligini belgilovchi muhim mezon. So'nggi 7-8 yil ichida shaharu qishloqlarimizda barpo etilgan bino va inshootlar yangi O'zbekistonning yangicha qiyofasini yaratdi. Bu qurilish sohasidagi barqaror rivojlanish sur'atlari samarasidir.

Xususan, 2023-yilda mamlakatimiz bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi 149,9 trln. so'mni tashkil etib, 2022-yildagiga nisbatan 6,4 foiz ko'paygani e'tiborga loyiq. Shu yil 1-yanvar holatiga ko'ra, qurilish faoliyatini olib boruvchi korxonalar va tashkilotlar soni 34 749 taga yetdi. Mazkur soha tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida 6,2 foizga teng bo'ldi.

O'tgan yili Buxoro viloyatida gazni yer ostida saqlash inshooti hajmini 10 mlrd. kub metrgacha oshirish bo'yicha bajarilgan ishlar, Surxondaryoda "Mustaqillikning 25 yilligi" koni negizida gaz-kimyoy majmuasi qurilishi, respublika hududlarida uglevodorodni qazib chiqarishni ko'paytirish uchun neft va gaz quduqlarini qayta tiklash va burg'itilish bo'yicha loyihalar bularga yaqqol misol.

Shu bilan birga, 2023-yil mamlakatimizda umumiy maydoni 14,1 mln. kvadrat metrga teng turarjoylar qurilib, foydalanishga topshirildi. Jami 63 ming xonadonga mo'ljallangan ushbu yashash imoratlarining 64,6 foizi qishloq joylarda bunyod etilgani olis va chekka hududlarimizda ham aholi turmush tarzi tobora yaxshilanib borayotganini ifodalaydi.

Shuningdek, respublika bo'yicha jami 107,4 ming o'quvchi o'rni mo'ljallangan maktablar hamda 27,6 ming o'rinni maktabgacha ta'lim muassasalari foydalanishga topshirildi. Qariyb 2,8 ming yotoq o'rni ega shifoxonalar, 5 mingdan ortiq qatnovga mo'ljallangan poliklinikalar ishga tushirilib, aholi salomatligiga xizmat qila boshladi.

E'tiborlisi, bu sohada ishlar kelgusida ham izchil davom ettiriladi. Yangi-yangi obyektlar va quvvatlar barpo etilib, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlik uchun bugungidan-da mustahkam zamin yaratiladi.

Tashqi bozordagi o'rnimiz qanday?

O'zbekiston yaqin istiqbolda dunyoning rivojlangan mamlakatlari safiga qo'shilihini maqsad qilgan. Buning uchun bizga yangi-yangi eksport bozorlari kerak. Shu bois mamlakatimizda so'nggi yillarda mahalliy eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman, tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida imtiyoz va afzalliklarning kompleks tizimi yaratildi. Pirovardida jahon bozorlaridagi konyunkturaning sezilarli o'zgarishlariga qaramay, oxirgi besh yil ichida tashqi savdo aylanmasi 1,5 barobar o'sdi.

Tovarlarni eksportga yetkazib berishda rasmiylashtirish tartibotlari sezilarli darajada soddalashtirildi va arzonlashtirildi. Sertifikatlash, sanitariya-epidemiologiya nazorati va bojxona rasmiylashtiruvining boshqa tartibotlari bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan "bir darcha" tamoyili bo'yicha eksport bitimlarini ro'yxatga olish mexanizmlari joriy etilmog'ida.

Eksport qiluvchi korxonalar, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlariga mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish, ularni tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi. Bunday o'zgarish va yangilanishlar tufayli 2023-yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 62,6 mlrd. dollarga yetdi va 2022-yildagiga nisbatan 23,9 foiz oshishi ta'minlandi. Eksport hajmi 24,4 mlrd. dollar va import hajmi 38,2 mlrd. dollarga yetdi.

Hozir mamlakatimiz jahonning 198 davlati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining salmoqli hisssasi Xitoy (21,9 foiz), Rossiya (15,8 foiz), Qozog'iston (7,0 foiz), Turkiya (5,0 foiz) va Koreya Respublikasiga (3,7 foiz) to'g'ri keldi.

So'nggi besh yil ichida bu boradagi ko'rsatkichlar Turkmaniston bilan — 2, Tojikiston bilan — 1,6, Qozog'iston bilan — 1,3 va Qirg'iziston bilan 1,2 barobardan ziyodga oshdi.

O'tgan yili tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (13,5 foiz), Xitoy (10,1 foiz), Qozog'iston (5,6 foiz), Turkiya (5,1 foiz), Afg'oniston (3,5 foiz) va Qirg'iz Respublikasi (2,6 foiz) kabi davlatlar bo'ldi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 78,8 foizni tashkil etdi. Ularning asosiy qismi sanoat tovarlari (16,6 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,3 foiz), kimyoviy vositalar hamda shunga o'xshash ashyolar (5,4 foiz), mashinalar va transport asbob-uskunalar (5,3 foiz) hissasiga to'g'ri kelmog'ida.

Eksport ulushida to'qimachilik tarmog'iy yetakchilik qildi — 12,5 foiz. 2023-yil yakuni bo'yicha 3,1 mlrd. dollarlik shunday tovarlar chetga sotildi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmog'ida. Shu asosda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1,2 mlrd. dollar qiymatidagi yoki 1,8 mln. tonna meva-sabzavot eksporti amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yildagiga nisbatan 3,3 foiz yuqori. Import qilingan tovarlar hajmi 7,4 mlrd. dollarga ko'paydi. Xizmatlar importi esa 1,6 foiz kamaydi. Chetdan xarid qilingan tovarlar tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (39,2 foiz) hisobiga to'g'ri keldi. Bu yurtimizda investitsiya muhiti yaxshilanib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ko'lami oshayotgani bilan bog'liq.

Shunga qaramay, iqtisodiyotdagi bu kabi o'sish sur'atlari biz ko'zlagan marralar uchun yetarli emas. Chunki yurtimizning imkoniyat va salohiyati yuqori. Yangi natijalar uchun mustahkam poydevor bor. Buyog'iga izlanish va hamijhatlikdagi sa'y-harakatlar zarur. Shundaygina O'zbekiston jahonning ilg'or mamlakatlari qatoriga qo'shila oladi. Davlat rahbari va xalqimizning soha mutasaddilari, tabdirlor va ishbilarmonlardan kutayotgani ham shu aslida.

Nodira ABDUSALOMOVA, TDIUning Buxdalgeriya hisobi kafedrasini mudiri, i.f.d., professor.

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

Bobur va Axsikent

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va jiodi u kamol topgan Axsikent bilan chambarchas bog'liq. Axsikentni tadqiq etish borasida olib borilgan uzoq yillik ilmiy izlanishlar chog'ida Bobur, temuriylar sulolasi bilan bog'liq juda ko'p ma'lumotlar aniqlangan.

Namangan shahrida "Bobur va Axsikent" mavzuida tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy anjumanida ayni ma'lumotlarning ko'pchiligi, shuningdek, yangi xulosalar ham taqdim etildi. — Bobur Mirzo shaxsi va uning ilmiy-ijodiy merosi, tadqiqiy ma'lumotlarning qiymatli Namangan hududidan mamlakatimiz hamda jahon miqyosiga taralayotgan ilm ziyolariga yanada yorqinlik bag'ishlashi, shubhasiz, — deydi Axsikent arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi rahbari Anvar Ikromov.

Anjumanda maqomchilar ansambli tomonidan Bobur g'azallariga bastalangan kuy va qo'shiqlar ijro etildi.

Yakunda bir guruh ishtirokchilarga faxriy yorliq va esdalik sovg'alari hamda Axsikent tarixi bilan bog'liq yangi nashrdan chiqarilgan adabiyotlar taqdim qilindi.

Qudratilla NAJMIDDINOV ("Xalq so'zi").

Ehtiyojning 40 foizi qoplanadi

"Qorako'l kumush kalava" mas'uliyati cheklangan jamiyatida joriy yilning dastlabki oyidan e'tiboran elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojning salmoqli qismi quyosh fotoelektr stansiyasi vositasida qoplanadi.



Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi mazkur korxonada shu maqsadda qiymati 18,2 milliard so'm bo'lgan loyiha amalga oshirildi. Bino tom qismida 2450 ta quyosh paneli o'rnatildi.

Korxonamiz hududi salkam 3,5 gektarni tashkil etadi, — deydi MCHJ rahbari Asror Mansurov. — Shuning 10 800 kvadrat metri bino va inshootlardan iborat

BILIMI YUKSAK AVLOD JAHONDA O'Z SO'ZINI AYTADI

Har bir mamlakat jahonda o'z o'rniga, o'z ovozigga ega bo'lishni istar ekan, avvalo, ta'lim tizimini rivojlantirishni, barkamol avlodni ulg'aytirishni maqsad qilib qo'yadi. Mazkur yo'lda barcha zarur shart-sharoitni yaratadi, to'siqlarni bartaraf etadi. Zotan, bilimi yuksak, ma'naviyati yetuk avlod qudratli kuch o'laroq xalqni ortidan ergashira oladi, jahonda o'z so'zini aytadi, orzularni ro'yogga chiqaradi.

Munosabat

Davlatimiz rahbari tomonidan keyingi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlaridagi yetakchi oliygo'har bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularning ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish borasida muayyan qadamlar tashlandi.

Namangan davlat universiteti professor-o'qituvchilari jamoasi ham bu jarayonda faol ishtirok etishga intilib, jahonning oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid turli reytinglarda tobora yuqori o'rinlarni egallayotir. Bunda oliygo'harimizning iqtidorli talaba-yoshlari, zukko va talabchan olimlarimizning samarali ilmiy tadqiqot natijalari alohida o'rin tutmoqda.

Taraqqiyot jadallashgan bugungi zamonda har bir sohada yangiliklar yaratish, innovatsiyalarga urg'u berish, ushbu yo'lda zamonaviy bilimlarga ega yetuk mutaxassislarni tarbiyalash g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videosektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalardan yana bir bor angladikki, hali oldimda yosh avlodni bilimli va iqtidorli qilib kamolga yetkazish, ta'lim sohasini tubdan o'zgartirish borasida kechiktirib bo'lmas ishlarni turibdi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, tez orada professional hamda oliy ta'limda kasbiy ko'nikmalarni belgilash va ularni baholash bo'yicha yangi tizim joriy qilinadi. Ya'ni talab yuqori bo'lgan 100 ta kasb tanlanib, Germaniya, Shveysariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida kasb standartlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, oliygo'har, texnikum hamda kollejlarida texnopark, laboratoriya va amaliy monomarkazlar tashkil etiladi.

Yangi o'quv yilidan boshlab

texnikumlarda o'qitish "akademik" va "ishchi kasb" ta'lim komponentlarining uzviylikini ta'minlaydigan yangi tizim asosida yo'lga qo'yiladi. Bunda kollej-texnikumning 1 va 2-kursidagi ta'lim dasturlari, darsliklari, bilimli baholash mezonlari va muallimlarga talablar oliygo'har bilan bir xil bo'ladi. Texnikumlarda ham "kredit tizimi" joriy qilinib, fanni o'zlashtirish bo'yicha to'plangan "kreditlar" oliygo'harlarda tan olinadigan tizim yaratiladi. Kollej-texnikumda ikki yil davomida yetarli "kredit" to'plagan o'quvchilarni "2+2" dasturlari asosida oliygo'harlarning ikkinchi yoki uchinchi kurslarida ta'limni davom ettirish imkoniga ega bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan bu vazifalar ijrosi sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Boshqacha aytganda, mamlakatimiz professional ta'lim tizimi yaqin vaqtda jahon standartlari darajasiga ko'tariladi. Bu esa sohada faoliyat yuritayotgan insonlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bugun dunyoviy aloqalarni yanada kengaytirish, jahon reytinglarida munosib ishtirok etish va o'quv dasturlarimizni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish orqali talabalarimizga sifatli ta'lim berish, ilg'a asoslangan bilimini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni hayotning o'zi talab qilmoqda.

Mamuniyat bilan ta'kidlash joiz, shu kunga qadar Namangan davlat universiteti 70 ga yaqin xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan anglashuv memorandumlarini imzolagan. Universitetni xalqaro darajaga olib chiqish maqsadida dunyoning "TOP — 500" taligiga kiruvchi Turkiyaning O'rta Sharq texnika universiteti, Istanbul texnika universiteti, Italiyaning Sannio universiteti, Germaniyaning Mayns universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi. Kelgusida professor-o'qituvchilar va talabalarining xalqaro almashinuv



dasturlaridagi ishtiroki soni 5 barobar oshirildi.

Ayni paytda oliygo'harimiz "GREENMETRICS" (grinmetriks) xalqaro reytingida 790-o'rinni egallab turibdi. "THE" va "QS" xalqaro reytinglarida ham ijobiy natijalarni kutaymiz. Yaqin vaqtda esa o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish va ilg'or jahon tajribalarini amaliyotga keng joriy qilish maqsadida universitetda yoshlarning til o'rganishlari uchun zamonaviy Til o'rganish markazi barpo etiladi.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi. Shu sababli, universitetga yosh iqtidorlarni saralab olish, zamonaviy bilim va tajribalar, milliy qadriyatlar asosida mustaqil hamda mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda maktab, texnikum va akademik litseylar bilan yaqin hamkorlik faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etadi hamda bu yo'nalishdagi xayrli ishlarni izchil davom ettiramiz.

Joriy yilda ham ushbu vazifalarni bajarish mobaynida yosh iqtidor va iste'dod egalarni astoydil ko'llab-quvvatlaymiz. Yoshlarni munosib rag'batlantirish maqsadida akademik litsey va viloyatimiz maktablari uchun "Rektor kubogi", "Rektor olimpiadasi" kabi tadbirlar hamda "Rektor stipendiyasi"ni ta'sis etamiz.

Ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan jahon ta'limi sahnasida qulay ta'limiy muhitni yaratish, shaffoflik va adolatni ta'minlash maqsadida inson omilini kamaytirishning samarali yo'li raqamlashtirishdir. Bu borada universitetda "Ochiq ilm-fan platformasi" ishga tushiriladi. Mazkur platforma 24 ta kontentni o'z ichiga olib, universitetda o'quv-me'yori, uslubiy va ilmiy tadqiqot hamda ijro hujjatlarini raqamli monitoring qilish imkonini

beradi.

Universitet tashkiliy tuzilmasini zamon talablari asosida qayta shakllantirib borish, amaldagi tuzilmalarning ish faoliyatini shaklan va mazmunan takomillashtirish hamda shunga mos tarzda moddiy-texnika bazasini boyitish oldimda turgan muhim maqsadlardan. Shu bois 7 qavatli "Innovatsion fakultet" o'quv binosi, ilmiy-amaliy o'quv poligoni maqsadida yaratilayotgan "Ekobog" maydoni, talabalar uchun 2 ta turarjoy binosining qurilishi boshlangan bo'lsa, "Ofis registrator" raqamli xizmatlar markazi, 5 ta o'quv-ilmiy laboratoriya, 2 ta 200 o'rinli zamonaviy ma'ruzalar xonasi va mavjud bo'lmagan uchun shinam xonalar qurilishi rejalashtirilmoqda.

"Ochiq ilm-fan platformasi" orqali barcha bo'lim, kafedra va fakultetlarning ilmiy, o'quv, o'quv-uslubiy sohalariga oid hujjatlari

maqsadli xorijiy stajirovkalari tashkil etiladi.

Universitetning tashqi va ichki qiyofasini tubdan o'zgartirish ishlariga ham jiddiy kirishamiz. Jumladan, "Namangan City"da 7 qavatli, 2 ming o'rinli "Innovatsion fakultet" o'quv binosi quriladi, "Sobiq Agroprom" deb nomlanadigan o'quv binosi mart oyida to'liq ta'mirdan chiqariladi. Bu o'quv inshooti bugungi kun talablaridan kelib chiqib, tubdan o'zga qiyofa va qulayliklar asosida ta'mirlanmoqda.

Shuningdek, yuqorida aytganimizdek, 2 ta 800 o'rinli talabalar turarjoyini bosqichma-bosqich foydalanishga topshiramiz. Universitet tashqi qiyofasini yanada ko'rkamlashtirish hamda qishloq xo'jaligi, biologiya sohalaridagi ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv laboratoriya va amaliyot poligonlarini tashkil etish maqsadida turli mintaqalarda o'suvchi daraxt va butasimon o'simliklarni o'zida jamlagan "Ekobog" va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda Biotexnologiya ilmiy o'quv laboratoriya kampusini barpo etamiz. Bu joyda nafaqat biotexnologiya, balki unga turdosh bo'lgan sohalar laboratoriya xonalari ham mavjud bo'ladi.

"Ofis registrator" markazi hamkasblarimiz, talabalar va ularning ota-onalari hamda hamkor tashkilotlarimiz uchun ta'lim xizmatlarini ko'rsata boshlaydi. Bu markazda universitet faoliyatiga oid barcha hujjat raqamlashgan holda yig'iladi, ular asosida ma'lumotlar, statistik tahlillar, o'quv jarayonini (davomat, darslarning onlayn tahlili kabi) nazorat qilish va unga tashxislar qo'yib borish

kabi ko'plab ishlar yo'lga qo'yiladi. Markaz faoliyati samaradorligini va sifatini oshirish hamda universitetda raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish maqsadida har bir fakultetda o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimida hisobdori Raqamlashtirish va xalqaro aloqalarni rivojlantirish ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimini joriy qilamiz.

Oliygo'harida hisobdorlik, ijro nazorati va intizomiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Barcha teng va fidoyilik bilan ishlashi shart" degan tamoyil yo'lga qo'yilgan tufayli universitet kengashini o'tkazish formati o'zgartirilmoqda. Unga nafaqat a'zolar, balki universitetning rahbarlari va professor-o'qituvchilari ham taklif etiladi. Barcha rahbar va xodimning tegishli masalalar bo'yicha amalga oshirgan ishlari, oliygo'har rivoji uchun qo'shgan hissasi eshitiladi va ularga baho beramiz. Har bir kengashda kamida 2 ta fakultet misolida oldimzga qo'ygan maqsadlarga qanday erishayotganimiz xolis va tanqidiy ko'rib chiqiladi.

“ Shu kunga qadar Namangan davlat universiteti 70 ga yaqin xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan anglashuv memorandumlarini imzolagan. Universitetni xalqaro darajaga olib chiqish maqsadida dunyoning "TOP — 500" taligiga kiruvchi Turkiyaning O'rta Sharq texnika universiteti, Istanbul texnika universiteti, Italiyaning Sannio universiteti, Germaniyaning Mayns universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi. Kelgusida professor-o'qituvchilar va talabalarining xalqaro almashinuv dasturlaridagi ishtiroki soni 5 barobar oshirildi. ”

raqamlashtiriladi va ularning onlayn tahlili yuritiladi. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilar, kafedra va fakultetlar samaradorlik ko'rsatkichlari milliy va xalqaro reyting mezonlari asosida monitoring qilib boriladi.

Joriy yilning fevral-mart oylarida Xitoy, Turkiya va Rossiyaning "TOP — 300" talikka kiruvchi 8 ta oliy ta'lim tashkiloti bilan sheriklik kelishuvlari imzolandi. Oliygo'harimiz "EVROASIS" universitetlar ta'lim tashkilotiga a'zo bo'ladi. Ushbu xalqaro aloqalar natijasida universitetdagi ta'lim yo'nalishlari bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tib, hamkorlikda ilmiy-amaliy va fundamental grantlar yo'lga qo'yiladi. Fakultetlarimiz dekanlari va mudirlarimiz boshchiligidagi salohiyatli professor-o'qituvchilardan iborat guruhlarining hamkor oliy ta'lim tashkilotlariga tashriflari uyushtiriladi. Bu tadbirlar har bir dekanga xalqaro tajribalar asosida o'z fakultetini yanada rivojlantirish strategiyasini belgilash va ilg'or tajribalarni joriy qilish imkonini beradi. O'qituvchilar va talabalarining

Ishonamizki, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar oliygo'har o'quv-tarbiya ishlari yangi pog'onaga olib chiqadi. Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan yangi O'zbekistonda buni od etish, mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini yaratish ishlariga kamarbasta bo'ladigan salohiyatli kadrlar safini kengaytirishga xizmat qiladi.

Sobitxon TURG'UNOV,
Namangan davlat universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqdimot “Ziyo Art” o'zbek tili markazi — yangi binoda

Nyu-York shahridagi "Mahalla USA" vatandoshlar jamoat uyushmasi tomonidan O'zbekiston Bosh konsulxonasi bilan birgalikda jamiyat huzuridagi "Ziyo Art" o'zbek tili markazi yangi binosining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2024-yil O'zbekistonda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingani mamlakatimizda, qolaversa, xorijdagi vatandosh yoshlarga bo'lgan e'tiborning yana bir ifodasi bo'ldi. "Ziyo Art" o'quv markazi "Mahalla USA" vatandosh jamoat uyushmasi huzurida 2020-yil sentabr oyida tashkil etilgan. Markaz faoliyati AQSHdagi vatandoshlarning farzandlariga o'zbek tili va adabiyotini o'rgatish, ularning tarbiyasida milliy qadriyatlarini ro'la



ahamiyatini oshirishga qaratilgan.

O'quv markazida 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'zbek tili va adabiyoti, odobnoma, kompyuter savodxonligi darslari, tasviriy san'at, matematika fanlaridan darslar, shuningdek, shaxmat, sambo va kurash kabi sport to'garaklari yo'lga qo'yilgan.

Mashg'ulotlar shanba va yakshanba kunlari tanlov asosida qabul qilingan malakali o'qituvchilar tomonidan, O'zbekistondan olib kelingan o'quv adabiyotlaridan foydalangan holda olib boriladi.

O'quv markazining yangi binosi 10 ta xonadan iborat bo'lib, umumiy maydoni 500 kvadrat metri tashkil qiladi. Hozirgi kunda markazda oyiga 120 — 150 nafar bola tahsil olmoqda.

Markaz yangi binosining ochilish marosimida o'zga chiqqan "Mahalla USA" uyushmasi rahbari Abdumalik Ahmedov tadbir 9-fevral — buyuk shoir, mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavallud topgan kunda ochilayotganiga e'tibor qaratadi.

"Markazning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodga, farzandlarimizga ona yurtga muhabbat, hurmat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, qadriyatlarini, milliy o'zligimizni saqlab qolish, ularga sifatli ta'lim-tarbiya berish va keng imkoniyatlar yaratishdan iborat", dedi u.

"Mahalla USA" yetakchisi, shuningdek, O'zbekiston hukumati tomonidan xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarga ko'rsatilayotgan e'tiborni yuqori baholadi.

Ochilish marosimida O'zbekiston Bosh konsulxonasi diplomatlari, kongressmenlar, Nyu-York shahri senatorlari, mahalliy hokimiyat vakillari, faol vatandoshlar va mahalliy OAV xodimlari qatnashdi.

"Dunyo" AA,
Nyu-York

REKLAMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI vakant (bo'sh) professor-o'qituvchilar lavozimiga tanlov e'lon qiladi

1. Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi kafedrasida	dotsent, assistent dotsent, katta o'qituvchi dotsent, assistent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	11. Kimyoviy texnologiya kafedrasida	dotsent
2. Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasida	dotsent, katta o'qituvchi dotsent, assistent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	12. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasida	katta o'qituvchi dotsent, katta o'qituvchi, assistent
3. Muhandislik grafikasi va mexanikasi kafedrasida	dotsent, assistent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	13. Fizika va elektrotexnika kafedrasida	katta o'qituvchi, assistent
4. Mehnat muhofazasi va ekologiya kafedrasida	dotsent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	14. Matematika va informatika kafedrasida	katta o'qituvchi, assistent
5. Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasida	dotsent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	15. Kimyo kafedrasida	dotsent, professor, assistent
6. To'qimachilik matolari texnologiyasi kafedrasida	dotsent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	16. Ipak texnologiyasi kafedrasida	dotsent, professor, assistent
7. Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish	dotsent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	17. To'qimachilik materialshunosligi kafedrasida	katta o'qituvchi dotsent, assistent
8. Charm buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasida	dotsent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	18. Kostyum dizayni kafedrasida	assistent
9. Yigirish texnologiyasi kafedrasida	dotsent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	19. AICP	assistent
10. Korporativ boshqaruv kafedrasida	dotsent, katta o'qituvchi professor, katta o'qituvchi, assistent	20. O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida	katta o'qituvchi (o'zbek tili)

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar nusxalarini topshiradi. Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tkazadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona. **Telefon:** 71-253-17-78.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhah Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.30 Topshirildi — 01.10

1 2 3 4 5 6